

ERIKSONNING SHAXS RIVOJLANISHIDA PSIXOIJTIMOY NAZARIYASI

**Andijon davlat pedagogika instituti
Pedagogika va psixologiya kafedrası
o’qituvchisi Yoqubaliyeva Dilafuz
Pedagogika fakulteti 1-bosqich talabasi
Artikova Odixon**

Annotatsiya: Ushbu maqolada E.Eriksonning sakkiz bosqichlik psixoijtimoiy nazariyasiga ta’rif berilgan hamda ushbu nazariya bo’yicha xulosa va qarashlar bayon etilgan.

Kalit so’zlar: shaxs rivojlanishi, muvaffaqiyat, muvaffaqiyatsizlik, qo’llab-quvvatlash, avtonomiya, g’amxo’rlik, tashabbus, shubha, ro’l chalkashligi, izolyatsiya, umidsizlik.

Eriksonning shaxs rivojlanishining psixoijtimoiy nazariyasini o’rganishim doirasidagi tushunchalarin shundan iborat bo’ldiki, ontogenez odam bo’lib yaralar ekan unda hayoti davomida avval shaxs keyn insoniylik fazilatları bosqichma bosqich rivojlanib boradi, buda uning yaqinlarining atrof-muhitning ta’siri juda katta ahamiyat kasb etadi. Erikson bu bosqichlarni o’z nazariyasida “rivojlanishning psixoijtimoiy nazariyasi” deb nomladi va u 8 bosqichdan iborat bo’ldi. U o’z nazariyasini bosqichlarga ajratar ekan har bir shaxs xar bir bosqichni “muvaffaqiyat” yoki “muvaffaqiyatsiz” lik bilan yakunlaydi deb izoh beradi. Erikson nazariyasining har bir bosqichidan Odamlarning muvaffaqiyatli o’tishi juda muhim deb hisoblaydi, har bir bosqich bir biri bilan chambarchas bog’liq bo’lib, bosqichlar ijobiy yakunlangandagina keyngi bosqichga o’tish rivojlanish ijobiy tus olayotganidan dalolat beradi. Muvaffaqiyarli o’tish odatda, inson o’z rivojlanishining oldingi bosqichlarini qanchalik yaxshi bosib o’tganligini, turmush tarzi farovonligini ko’rsatadi. Bularning aksi urushlar, psixologik bosimlar, qo’llab-quvvatlanmaslik natijasida esa bosqichlar salbiy yakunlanadi.

1-bosqich: ISHONCH VA ISHONCHSIZLIK bosqichi bo’lib, bu bosqich tug’ilishdan bir yilgacha bo’lgan davrlarni o’z ichiga oladi. Bunda ishonch va ishonchsizlik o’rtasidagi kurash jarayoni sodir bo’ladi. Chaqaloq dunyoga kelishi bilan u ilk inqirozni boshdan kechirishini hisobga olsak unda uni ota-onasi (qarovchilar) uning barcha extiyojlarini qondirishiga bolada ishonch tuyg’usi shakllanishi va shu bilan birga unda bu dunyo haqidagi ijobiy ta’surotlariga unga qilingan g’amxo’rlik, mexr-muhabbat orqali erishiladi. Agar yuqoridagilarning aks holatlari kuzatilsa, chaqaloqda bu dunyoda va unga g’amxo’rlik qilayotga shaxslarga ishonchsizlik hissi yuzaga keladi.

2-bosqich: AVTONOMIYA VA SHUBHA bosqichi bolalarning 1 yoshdan 3 yoshgacha bo’lgan davrlardagi bolaning rivojlanish bosqichi hisoblanadi. Bu davrda bolalar mustaqillikga intiladilar. Ular nafaqat mustaqil yurishni boshlaydilar, balki bir qator harakatlarni bajarish jarayonlarini ham o’zlashtiradilar. Bolalar ko’pincha ularning hayotiga ta’sir qiladigan ba’zi oziq-ovqat va kiyim-kechaklar haqida ko’proq tanlov qilishni xohlashadi. Va bu uning mustaqil shaxs bo’lishida muhim ro’l o’ynaydi va bolalarda avtonomiya tuyg’usi paydo boladi. Bu bosqichda tarbiyachilarning ham ahamiyati katta ular bollalarning tanlovini rag’batlantirish, qaror qabul qilishlariga imkon berish va mustaqillikni oshirish orqali ushbu bosqichda muvaffaqiyatga erishishlariga yordam beradi. Haddan tashqari tanqidiy munosabatda bo’lgan, farzandlariga tanlov qilishiga yo’l qo’ymaydigan yoki haddan tashqari nazorat qiluvchi ota-onalar bolalarning bu bosqichdan o’z-o’zini hurmat qilmasdan va o’ziga ishonchsiz chiqib ketishlariga, o’z qobiliyatlaridan uyalishiga va boshqalarga haddan tashqari qaram bo’lib qolishlariga sabab bo’ladi va bu bosqich muvaffaqiyatsiz yakunlanganidan dalolat beradi.

3-bosqich: TASHABBUS VA AYBDORLIK bosqichi bo’lib, bu yosh davrlari 3 yoshdan 5 yoshgacha bo’lgan oraliqni o’z ichiga oladi. Bu yoshdagi bolalarda o’yinqaroqlik va o’z tengdoshlari davrasida vaqt o’tkazishga xohish kuchayishi holatlari kuzatiladi, bu davrdagi bolalar uchun ota-onalarning vazifasi farzandlarini izlanishga tegishli qarorlarni qabul qilishga undashligi kerak bo’ladi bu ulardagi tashabbuskorlik qobiliyatlarini yanada rivojlanishiga aybdorlik hissini yo’qolishiga yordam beradi bu esa bosqich muvaffaqiyatli yakunlanganidan dalolat beradi. Bosqichda muvaffaqiyatsiz o’tish esa bolada aybdorlik hissini shakllantiradi.

“Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim, fan, innovatsiya va ilmiy tadqiqotlarning salmoqli natijalari: muammo va yechimlar” mavzusida Respublika ilmiy anjuman to’plam materiallari 2024-yil 19-aprel kun.

4-bosqich: SANOAT VA PASTLIK bosqichi bolaning 6 yoshdan 11 yosh oralig`ida sodir bo`lib, bolalarling o`qish, yozish chizish kabi qobiliyatlari namoyon bo`la boshlaydi, ularga har bir yangi o`rgangan narsalariga ota-ona hamda ustozlar tomonidan e`tirof etilib, qo`llab quvvatlanishi kerak bo`ladi bu yoshdagi qo`llab quvvatlash va rag`batlantirish bolada KOMPETENTLIK qobiliyatini uyg`otadi bu qobiliyatini uyg`ota olgan bolada o`z oldiga qo`yilga vazifalarni hal qila olishiga ishonchi kuchli bo`ladi. Bu bosqichni o`zlashtira olmaslik esa pastlik hamda o`ziga bo`lgan ishonchni yo`qolishiga olib keladi oqibatda bolaning qobiliyatlari uyg`onmay qolib ketadi.

5-bosqich: SHAXS VA RO`L CHALKASHLIGI bosqichi 12 yoshdan 20 yoshgacha bo`lgan davr bo`lib, bu bosqich o`zligini aniqlash uchun muhim hisobladadi. Bolada o`zi nima xoxlashi, kim bo`lishni istashi uchun javob topadigan bosqich ham aynan shu bosqich hisoblanadi. Bu bosqichni muvaffaqiyatli yakunlash uchun ota-onadan farzandini ko`proq qo`llab quvvatlashi, sevgi bilan tarbiya qilishni talab qilinadi. Muvaffaqiyatli yakunning belgisi bu sodiqlik xissining paydo bo`lishidir. Muvaffaqiyatsizlik ozligini anglay olmaslik, nima xoxlashini bilmaslik kabi hislarni yuzaga keltiradi.

6-bosqich: INTIM VA IZOLYATSIYA bosqichi 21 yoshdan 40 yoshgacha bo`lgan davr bo`lib, bunda asosan boshqa odamlar bilan sevgi, uzoq muddatli va barqaror munosabatlarni shakllantirish kerak bo`ladi o`zbekcha qilib aytganda, oila qurish oilani mustahkamlash bosqichi desak ham bo`ladi. Bu bosqichning muvaffaqiyatli yakuni mustahkam aloqalarda namoyon bo`lsa, muvaffaqiyatsizligi-yolg`izlik va yolg`izlik hissi orqali namoyon bo`ladi.

7-bosqich: UNUMDORLIK VA TURG`UNLIK 40 yoshdan 65 yoshgacha bo`lgan bosqich bo`lib, bu yoshdagi odamlar dunyoga qandaydir iz qoldirish haqida o`ylaydilar bunga: bolalarni tarbiyalash, g`amxo`rlik qilish, dunyoda qandaydir iz qoldirish harakatlari boshlanadi. Ushbu bosqichni muvaffaqiyatli yakunlash Kishida g`ururni xis qiladi va o`zlarida g`amxo`rlik tuyg`usini rivojlantiradi. Muvaffaqiyatsiz yakun esa o`zlarini dunyodan chetda his qilishlariga olib keladi.

8-bosqich: YAXLITLIK VA UMIDSIZLIK bosqichi 65 yoshdan umrning oxirigacha bo`lgan davr bo`lib, odamlar o`zlarining hayot yo`llarini qanday bosib o`tganlari haqida o`ylay boshlaydilar, ularning aksariyati o`zlariga: "Men yaxshi hayot kechirdimmi?" degan savolni berishadi, Muhim voqealarni g`urur va qadr-qimmat bilan eslaydigan odamlar o`zlarini his qilishadi o`zida qoniqish hosil qiladi, orqasiga afsus bilan qaraganlar esa achchiqlanish yoki hatto umidsizlikka tushishadi. Umrning so`nggi bosqichidan muvaffaqiyatli o`tgan insonlar o`zlarini donolik tuyg`usi bilan ko`rsatib, o`linga to`g`ri kelishiga qaramay, munosib va mazmunli hayot kechirganliklarini tushunadilar. Muvaffaqiyatsiz o`tganlar esa, yillarni behuda o`tkazganliklaridan afsuslanish, qayg`u va g`azabni boshdan kechiradilar .

Eriksonning shaxs rivojlanishining psixoiijtimoiy nazariyasidan xolosa qilib aytish mumkinki, shaxsning barkamol rivojlanishida Erikson nazariyasining har bir bosqichini muvaffaqiyatli yakunlanishi juda muhim hisoblanadi. Eriksonning ushbu nazariyasi uning o`zini qiziqtirgan shaxsiyat inqirozi muammosi uning hayotiy tajribasi bilan bevosita bog`liq edi. O`z asarida u Freydning shaxsning psixologik rivojlanishi besh bosqichga bo`lingan nazariyasiga qarshi chiqqan xolda sakkiz bosqichli nazariyani ishlab chiqdi va bunda Erikson balog`at yoshining uch bosqichini qo`shgan. Freydning shaxsning psixologik rivojlanish nazariyasida asosan tug`ilish va o`smirlik davriga qaratilgan bolsa, Eriksonning psixoiijtimoiy nazariyasi inson tug`ilgandan to o`lgungacha bo`lgan davrlarni o`z ichiga olgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Schaffer, doktor & Kipp, K. Rivojlanish psixologiyasi: bolalik va o`smirlik. Belmont, KA: Wadsworth; 2010 yil.
2. Newman, BM va Newman, PR. Hayot orqali rivojlanish: Psikososyal yondashuv. Boston, MA: Cengage Learning; 2017.
3. Kreyg.G «психология развития» питер-2000